

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

QO‘RIQLASH FAOLIYATI TO‘G‘RISIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2022-yil 1-fevralda qabul qilingan

Senat tomonidan 2022-yil 28-aprelda ma’qullangan

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi qo‘riqlash faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilik

Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

idoraviy jihatdan tegishli bo‘lmagan qorovullik — O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining shartnoma asosida davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslarning obyektlarini qo‘riqlash uchun tuziladigan tarkibiy bo‘linmasi tomonidan amalga oshiriladigan qo‘riqlash faoliyatining turi;

idoraviy jihatdan tegishli bo‘lmagan harbiylashtirilgan qo‘riqlash — O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining o‘ta muhim hamda toifalangan obyektlarni, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslarning obyektlarini shartnoma asosida qo‘riqlash bo‘yicha maxsus vazifalarni bajarish uchun tuziladigan, xizmat faoliyati qorovullik xizmatini tashkil etish va o‘tash tartibi talablariga muvofiq tashkil etiladigan tarkibiy bo‘linmasi tomonidan amalga oshiriladigan qo‘riqlash faoliyatining turi;

idoraviy qorovullik — davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, tadbirkorlik subyektlarining o‘z obyektlarini qo‘riqlash uchun yuridik shaxs tashkil etmasdan tuziladigan tarkibiy bo‘linmasi tomonidan yoki zimmasiga tegishli vazifalarni bajarish yuklatilgan alohida xodimi tomonidan amalga oshiriladigan qo‘riqlash faoliyatining turi;

idoraviy harbiylashtirilgan qo‘riqlash — davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining hamda boshqa tashkilotlarning o‘z obyektlarini qo‘riqlash bo‘yicha maxsus vazifalarni bajarish uchun yuridik shaxs tashkil etmasdan tuziladigan, xizmat faoliyati qorovullik xizmatini tashkil etish va o‘tash tartibi talablariga muvofiq tashkil etiladigan tarkibiy bo‘linmasi tomonidan amalga oshiriladigan qo‘riqlash faoliyatining turi;

idoraviy harbiylashtirilgan qo‘riqlash hamda idoraviy qorovullik bo‘linmalarining ishchisi va xizmatchisi — idoraviy harbiylashtirilgan qo‘riqlash hamda idoraviy qorovullik bo‘linmalarining qo‘riqlash faoliyatini boshqarish, nazorat qilish va amalga oshirish vazifalari o‘z zimmasiga yuklatilgan ishchisi va xizmatchisi;

nazorat-o‘tkazish rejimi — qo‘riqlanadigan obyektlarga (qo‘riqlanadigan obyektlardan) shaxslarning kirishini (chiqishini), transport vositalarining kirib kelishini (chiqib ketishini), mol-mulk olib kirilishini (olib chiqilishini), tashib kirilishini (tashib chiqilishini) nazorat qilish tartibini ta’minlovchi qoidalar majmui;

obyektning ichki rejimi — qo‘riqlanadigan obyektida belgilangan ichki tartib qoidalariga va yong‘in xavfsizligi talablariga rioya etilishini ta’minlovchi tadbirlar majmui;

qo‘riqlanadigan obyekt — belgilangan tartibda qo‘riqlashga olingan jismoniy va yuridik shaxslarning binolari, imoratlari, inshootlari, ularning hududlari, joyning uchastkalari, transport

vositalari, transportda tashiladigan yuklari, pul mablag‘lari, moddiy boyliklari va boshqa mol-mulki, shuningdek jismoniy shaxs;

qo‘riqlashning muhandislik vositalari — qo‘riqlanadigan obyektlarni tajovuzlardan mexanik jihatdan himoya qilish uchun qo‘llaniladigan qurilmalar va inshootlar;

qo‘riqlashning texnik vositalari — qo‘riqlanadigan obyektlarni tajovuzlardan himoya qilish uchun foydalaniladigan, mustaqil vazifalarni bajaradigan, konstruktiv jihatdan yakunlangan qurilmalar;

qo‘riqlash faoliyati — qo‘riqlanadigan obyektlarni himoya qilish, shuningdek yuridik shaxslarning qo‘riqlanadigan obyektlarida nazorat-o‘tkazish va obyektning ichki rejimlarini ta‘minlash bo‘yicha faoliyat.

4-modda. Qo‘riqlash faoliyatining asosiy vazifalari

Qo‘riqlash faoliyatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

jismoniy shaxslarning hayotini va sog‘lig‘ini tajovuzlardan himoya qilish;

jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini hamda obyektlarini tajovuzlardan himoya qilish;

qo‘riqlanadigan obyektlar hududida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga chek qo‘yish;

yuridik shaxslarning qo‘riqlanadigan obyektlarida nazorat-o‘tkazish va obyektning ichki rejimlarini ta‘minlash.

5-modda. Qo‘riqlash faoliyatining asosiy prinsiplari

Qo‘riqlash faoliyatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

qonuniylik;

qo‘riqlanadigan obyektning daxlsizligi;

jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish.

6-modda. O‘ta muhim va toifalangan obyektlarni, shuningdek maxsus yuklarni qo‘riqlash

O‘ta muhim va toifalangan obyektlar ro‘yxati, mazkur obyektlarni qo‘riqlash turlari, qo‘riqlashning muhandislik va texnik vositalari bilan jihozlashga doir talablar, shuningdek maxsus yuklarni transportda tashish jarayonida ularni qo‘riqlash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi.

2-bob. Qo‘riqlash faoliyati sohasini davlat tomonidan tartibga solish

7-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qo‘riqlash faoliyati sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tomonidan qo‘riqlanishi lozim bo‘lgan obyektlar ro‘yxatini tasdiqlaydi;



LexUZ sharhi

Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-noyabrdagi 930-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo‘riqlash bosh boshqarmasi bo‘linmalari tomonidan qo‘riqlanadigan obyektlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.

O‘zbekiston Respublikasining o‘ta muhim va toifalangan obyektlarida qo‘riqlashning texnik vositalarini loyihalash, montaj qilish, sozlash, ta‘mirlash hamda ularga texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha ishlarni bajarish uchun ruxsatnoma berish tartibini belgilaydi;

qo‘riqlashning texnik vositalarini montaj qilish, sozlash, ta‘mirlash va ularga texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha xizmatlar (bundan buyon matnda qo‘riqlash-texnik xizmatlar deb yuritiladi) ko‘rsatish faoliyatini boshlaganlik yoki tugatganlik haqida xabardor qilish tartibini belgilaydi;

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tomonidan qo'riqlash-texnik xizmatlar ko'rsatish bo'yicha faoliyat ustidan nazoratni amalga oshirish tartibini belgilaydi, bundan yakka tartibda foydalaniladigan qo'riqlashning texnik vositalari (avtotransport vositalarini olib qochishga qarshi qo'riqlashning texnik vositalari va boshqalar) ustidan nazorat qilish mustasno;

xizmat qurolidan foydalanish huquqiga ega bo'lgan idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlashni, idoraviy qorovullikni tashkil etish huquqiga ega bo'lgan davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining hamda boshqa tashkilotlarning ro'yxatini, shuningdek idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlaydi;

idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash bo'linmalari ishchilarining va xizmatchilarining kasbiy tayyorgarligini amalga oshirish tartibini belgilaydi;

idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash hamda idoraviy qorovullik bo'linmalarining ishchilari va xizmatchilari tomonidan shaxsiy ko'rikdan o'tkazishni, ashyolarni, qo'l yukini, bagajni, transport vositalarini ko'zdan kechirishni amalga oshirish qoidalarini belgilaydi;

idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash hamda idoraviy qorovullik bo'linmalari ishchilarining va xizmatchilarining o'z majburiyatlarini bajarishiga to'sqinlik qiladigan kasalliklar va jismoniy nuqsonlar ro'yxatini tasdiqlaydi;

idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash hamda idoraviy qorovullik bo'linmalarining ishchilari va xizmatchilari tomonidan qo'llaniladigan xizmat qurolining hamda uning o'q-dorilarining turlari, xillari, modellarini, ta'minot normalarini, shuningdek idoraviy qorovullik bo'linmalarining ishchilariga va xizmatchilariga foydalanish uchun ruxsat etilgan maxsus vositalar ro'yxatini belgilaydi;

O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab xavfli yuklarni tashish jarayonida ularni qo'riqlash qoidalarini tasdiqlaydi;

idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash hamda idoraviy qorovullik bo'linmalarida xizmat qurolining va uning o'q-dorilarining muomalada bo'lishi tartibini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

8-modda. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining qo'riqlash faoliyati sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi:

qo'riqlash faoliyati sohasidagi davlat siyosatini amalga oshiradi;

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tomonidan ko'rsatiladigan qo'riqlash xizmatlari uchun tariflarni tasdiqlaydi;

davlat obyektlarini, o'ta muhim, toifalangan obyektlarni hamda boshqa obyektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini, shuningdek xorijiy davlatlar hamda xalqaro tashkilotlarning diplomatik, konsullik va boshqa vakolatxonalarini qo'riqlashni amalga oshiradi;

qo'riqlash vositalari va tizimlarini qo'llash sohasida yagona texnik siyosat yuritilishini, ulardan foydalanish ustidan samarali nazoratni, shuningdek qo'riqlash faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keng miqyosda joriy etilishini ta'minlaydi;

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining idoraviy jihatdan tegishli bo'lmagan harbiylashtirilgan qo'riqlash hamda idoraviy jihatdan tegishli bo'lmagan qorovullik bo'linmalari ishchilari va xizmatchilarining formal kiyim-boshi va farqlovchi belgilari namunalarini tasdiqlaydi;

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tomonidan qo'riqlash xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha shartnomalarning namunaviy shaklini tasdiqlaydi;

saf bo'linmalari, idoraviy jihatdan tegishli bo'lmagan harbiylashtirilgan qo'riqlash, idoraviy jihatdan tegishli bo'lmagan qorovullik bo'linmalari tomonidan qo'riqlashning texnik vositalaridan foydalangan holda qo'riqlash xizmatlarini, shuningdek qo'riqlash-texnik xizmatlarni ko'rsatadi;

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining Qo'riqlash bosh boshqarmasiga qo'riqlash uchun topshirilgan obyektlarni qo'riqlashning muhandislik va texnik vositalari bilan jihozlash talablarini, tartibini hamda shartlarini belgilaydi;

O'zbekiston Respublikasining o'ta muhim va toifalangan obyektlarida qo'riqlash-texnik xizmatlar ko'rsatish bo'yicha ishlarni bajarish uchun ruxsatnomalar beradi;

qo'riqlash-texnik xizmatlar ko'rsatish bo'yicha faoliyatni boshlaganlik yoki tugatganlik to'g'risida xabardor qilish tartibiga rioya etilishini nazorat qiladi;

qo'riqlanadigan obyektlar hududida jamoat tartibini saqlaydi, huquqbuzarliklarning oldini oladi va ularga chek qo'yadi;

o'zgalar mol-mulkini talon-toroj qilish bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlarning oldini olish bo'yicha profilaktika tadbirlarini amalga oshiradi;

idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash hamda idoraviy qorovullik bo'linmalarining ishchilari va xizmatchilari tomonidan qo'llanilishiga ruxsat etilgan maxsus vositalarni olish, transportda tashish, saqlash, hisobga olish, ta'mirlash va yo'q qilish qoidalarini tasdiqlaydi;

idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash hamda idoraviy qorovullik bo'linmalari ishchilarining va xizmatchilarining xizmat-jangovar, ijtimoiy-huquqiy, axloqiy-ruhiy hamda jismoniy tayyorgarligini amalga oshirish tartibini belgilaydi;

idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash hamda idoraviy qorovullik bo'linmalari naryadlari tomonidan xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi tavsiyalarni ishlab chiqadi;

idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash hamda idoraviy qorovullik bo'linmalari ishchilarining va xizmatchilarining boshlang'ich tayyorgarligini hamda ularning malakasi oshirilishini shartnoma asosida ta'minlaydi;

idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash hamda idoraviy qorovullik bo'linmalarining faoliyati tashkil etilishini nazorat qiladi, shuningdek davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining ushbu bo'linmalar tomonidan qo'riqlanadigan obyektlarida qo'riqlanish, nazorat-o'tkazish rejimi, qo'riqlashning muhandislik va texnik vositalari bilan jihozlanganlik holatini tekshiradi (ikki yilda bir marta);

idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash bo'linmalari shaxsiy tarkibining eng ko'p sonini belgilaydi;

qo'riqlash faoliyati sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

qo'riqlash faoliyati sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.



LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 18-noyabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi" to'g'risidagi O'RQ-647-sonli Qonunining 3, 26 va 27-moddalari.

3-bob. Qo'riqlash faoliyatini amalga oshiruvchi subyektlar, ularning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi

9-modda. Qo'riqlash faoliyatini amalga oshiruvchi subyektlar

Quyidagilar qo'riqlash faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega:

davlat organlarining qo'riqlash bo'linmalari;

idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash bo'linmalari;

idoraviy qorovullik bo'linmalari.

O'zbekiston Respublikasi hududida qo'riqlash faoliyatini chet davlatlarning jismoniy shaxslari va tashkilotlari, shu jumladan xususiy tashkilotlari tomonidan amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi, bundan O'zbekiston Respublikasi hududiga qisqa muddatli tashrif bilan kelgan oliy darajali mehmonlar xavfsizligini ta'minlash hollari mustasno.

10-modda. Davlat organlarining qo'riqlash bo'linmalari

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmatining, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Davlat xavfsizlik xizmatining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Davlat bojxona qo'mitasining hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiruvchi harbiy tuzilmalarning tegishli bo'linmalari davlat organlarining qo'riqlash bo'linmalaridir.

Davlat organlarining qo‘riqlash bo‘linmalari jamoat tartibini saqlash va favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish uchun belgilangan tartibda jalb qilinishi mumkin.

11-modda. Iidoraviy harbiylashtirilgan qo‘riqlash bo‘linmalari va idoraviy jihatdan tegishli bo‘lmagan harbiylashtirilgan qo‘riqlash bo‘linmalari

Iidoraviy harbiylashtirilgan qo‘riqlash bo‘linmalari naryadlari tomonidan xizmatning o‘talishini tashkil etish va xizmatning o‘talishi tartibi O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Garnizon va qorovullik xizmatlari ustavi asosida ishlab chiqilgan hamda O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bilan kelishilgan, o‘z tasarrufida idoraviy harbiylashtirilgan qo‘riqlash bo‘linmalari bo‘lgan davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda boshqa tashkilotlar tasdiqlagan qoidalarga muvofiq belgilanadi.

Iidoraviy harbiylashtirilgan qo‘riqlash bo‘linmalarining ishchilari va xizmatchilari o‘z xizmat majburiyatlarini bajarish chog‘ida davlat hamda xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bilan kelishuvga ko‘ra ishlab chiqilgan hamda tasdiqlangan, tegishli farqlovchi belgilari bo‘lgan formal kiyim-bosh kiyib yurish huquqiga ega.

Iidoraviy harbiylashtirilgan qo‘riqlash bo‘linmalarining ishchilariga va xizmatchilariga belgilangan tartibda xizmat guvohnomalari beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining idoraviy jihatdan tegishli bo‘lmagan harbiylashtirilgan qo‘riqlash bo‘linmalarining ishchilari va xizmatchilari qonunchilikda idoraviy harbiylashtirilgan qo‘riqlash bo‘linmalarining ishchilari hamda xizmatchilari uchun belgilangan huquqlarga ega bo‘ladi va majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi.

12-modda. Iidoraviy qorovullik bo‘linmalari va idoraviy jihatdan tegishli bo‘lmagan qorovullik bo‘linmalari

Iidoraviy qorovullik bo‘linmalarining faoliyatini tashkil etish hamda ularning xizmatni o‘tashi tartibi davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining va boshqa tashkilotlarning idoraviy hujjatlarida belgilanadi.

Iidoraviy qorovullik bo‘linmalari naryadlarining ish vaqti va smenasi davomiyligi O‘zbekiston Respublikasining mehnat to‘g‘risidagi qonunchiligiga muvofiq belgilanadi.

Iidoraviy qorovullik bo‘linmalarining ishchilari va xizmatchilari tegishli idoralar tomonidan belgilangan tartibda joriy etilgan maxsus formal kiyim-boshga, farqlovchi belgilarga ega bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining idoraviy jihatdan tegishli bo‘lmagan qorovullik bo‘linmalarining ishchilari va xizmatchilari qonunchilikda idoraviy qorovullik bo‘linmalarining ishchilari hamda xizmatchilari uchun belgilangan huquqlarga ega bo‘ladi va majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi.



LexUZ sharhi

Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktabrdagi 598-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat organlari va tashkilotlari idoraviy qorovullik bo‘linmalarining huquqbuzarlik va hodisalar yuzasidan ichki ishlar organlari va O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo‘linmalarini xabardor qilish hamda o‘zaro hamkorlik qilish tartibi haqida”gi nizomning 4 va 5-bandi.

13-modda. Qo‘riqlash faoliyatini shartnoma asosida amalga oshiruvchi subyektlar

Quyidagilar shartnoma asosida qo‘riqlash faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega:

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi — O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tomonidan qo‘riqlanishi lozim bo‘lgan obyektlarda, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bo‘yicha;

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi — O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tomonidan majburiy qo‘riqlanishi lozim bo‘lgan o‘ta muhim va toifalangan obyektlarda, shuningdek transportda tashiladigan maxsus yuklarni qo‘riqlash bo‘yicha;

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi — qonunchilikda belgilanadigan transportda tashiladigan yuklarni va boshqa obyektlarni qo‘riqlash bo‘yicha.

14-modda. Qo‘riqlash faoliyatini shartnoma tuzmasdan amalga oshiruvchi subyektlar

Quyidagilar qo‘riqlash faoliyatini qonunchilikda berilgan vakolatlar doirasida shartnoma tuzmasdan amalga oshirish huquqiga ega:

- davlat organlarining qo‘riqlash bo‘linmalari;
- idoraviy harbiylashtirilgan qo‘riqlash bo‘linmalari;
- idoraviy qorovullik bo‘linmalari.

15-modda. Qo‘riqlash faoliyatini amalga oshiruvchi subyektlarning huquqlari

Qo‘riqlash faoliyatini amalga oshiruvchi subyektlar o‘z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlarga ega:

qo‘riqlash faoliyatini amalga oshirishda fuqarolarning hayotiga va sog‘lig‘iga, atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish;

qo‘riqlanadigan obyekt hududida jismoniy va yuridik shaxslardan qonunchilikka rioya etishni, qonunga xilof xatti-harakatlarni to‘xtatishni talab qilish;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, mahalliy davlat hokimiyati organlaridan hamda boshqa tashkilotlardan qo‘riqlash faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan axborotni bepul olish, bundan qonunchilikda boshqacha tartib nazarda tutilgan hollar mustasno;

radioaloqani amalga oshirish uchun radiochastotadan (radioto‘lqindan) belgilangan tartibda foydalanish;

buyurtmachidan qo‘riqlash faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni, axborotni olish;

qo‘riqlanadigan obyektни ko‘zdan kechirish.

Qo‘riqlash faoliyatini amalga oshiruvchi subyektlar qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

16-modda. Qo‘riqlash faoliyatini amalga oshiruvchi subyektlarning majburiyatlari

Qo‘riqlash faoliyatini amalga oshiruvchi subyektlar qo‘riqlanadigan obyektlardagi xizmatni tashkil etish va o‘tash chog‘ida:

qo‘riqlanadigan obyektlarning ishonchli himoya qilinishini ta‘minlashi;

qo‘riqlanadigan obyektlarning barqaror faoliyat ko‘rsatishini izdan chiqarishga qaratilgan qonunga xilof harakatlarning oldini olishi va tashiladigan yuklarning but saqlanishini ta‘minlashi;

qo‘riqlanadigan obyektlarda tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf qilishda ishtirok etishi;

qo‘riqlanadigan obyektga qonunga xilof ravishda kirgan shaxslarni qidirish va ushlashda ishtirok etishi;

nazorat-o‘tkazish rejimini tashkil etishi va qo‘riqlanadigan obyekt hududida obyektning ichki rejimiga rioya etilishini nazorat qilishi;

qo‘riqlash faoliyatiga zamonaviy texnik vositalar va tizimlarni joriy etishi hamda ulardan samarali foydalanishi;

qo‘riqlanadigan obyektlar hududida jamoat tartibini saqlashi, huquqbuzarliklarning oldini olishi va ularga chek qo‘yishi;

qo‘riqlash faoliyatini amalga oshirish chog‘ida o‘ziga ma‘lum bo‘lib qolgan davlat sirlarini va qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni oshkor qilmasligi shart.

Qo‘riqlash faoliyatini amalga oshiruvchi subyektlarning zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

17-modda. Qo‘riqlash faoliyatini amalga oshiruvchi subyektlarning javobgarligi

Qo‘riqlash xizmatlarini ko‘rsatishga doir shartnomaga muvofiq qo‘riqlash faoliyatini amalga oshiruvchi subyektlar o‘z harakatlari (harakatsizligi) natijasida qo‘riqlanadigan obyektga yetkazilgan zararining o‘rnini to‘liq hajmda qoplashi shart.

Zararning o'rnini qoplash miqdori va shartlari qo'riqlash xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi ikki tomonlama shartnomada belgilanadi.

Qo'riqlash faoliyatini shartnoma tuzmasdan amalga oshiruvchi subyektlarning harakatlari (harakatsizligi) natijasida qo'riqlanadigan obyektga zarar yetkazilgan taqdirda javobgarlik qonunchilikka muvofiq belgilanadi.

4-bob. Qo'riqlash faoliyatini amalga oshiruvchi subyektlar harbiy xizmatchilarining, xodimlarining, ishchilari hamda xizmatchilarining huquq va majburiyatlari

18-modda. Qo'riqlash faoliyatini amalga oshiruvchi subyektlar harbiy xizmatchilarining, xodimlarining, ishchilari va xizmatchilarining huquqlari

Qo'riqlash faoliyatini amalga oshiruvchi subyektlarning harbiy xizmatchilari, xodimlari, ishchilari va xizmatchilari xizmatni o'tayotganda quyidagi huquqlarga ega bo'ladi:

jismoniy va yuridik shaxslardan belgilangan nazorat-o'tkazish va obyektning ichki rejimlariga, shuningdek jamoat tartibiga rioya etilishini talab qilish;

qo'riqlanadigan obyekt hududidan mol-mulkni qonunga xilof ravishda olib chiqishga yoki qo'riqlanadigan obyektga taqiqlangan predmetlarni olib kirishga urinish chog'ida shaxslarni ushlash;

qo'riqlanadigan obyektlardagi mol-mulkni saqlash sharoitlarini, qo'riqlashning muhandislik va texnik vositalari holatini hamda sozligini tekshirish, aniqlangan qoidabuzarliklarning, kamchiliklarning bartaraf etilishini talab qilish;

qo'riqlanadigan obyektga qonunga xilof ravishda kirgan yoki qo'riqlanadigan obyektga huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarning shaxsini aniqlash, ularni ushlash hamda qo'riqlash xizmati xonasiga yetkazish (bunday vakolatlari mavjud bo'lmaganda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xodimlarini chaqirish);

muomalada bo'lishi cheklangan moddalar, shu jumladan obyektga olib kirish (undan olib chiqish) uchun taqiqlangan predmetlar ro'yxatiga qo'riqlanadigan obyekt ma'muriyati tomonidan kiritilgan moddalar bor deb hisoblash uchun asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, fuqarolarni shaxsiy ko'rikdan o'tkazish, ularning ashyolarini, qo'l yukini, bagajini ko'zdan kechirish hamda ularni olib yurish va saqlash uchun asoslar mavjud bo'lmagan taqdirda mazkur predmetlar, vositalar va moddalarni olib qo'yish, shuningdek transport vositalarini ko'zdan kechirish, ularda tashilayotgan yuklarning ilova qilinadigan hujjatlarga muvofiqligini tekshirish;

qo'riqlanadigan obyektidagi, patrullik yo'nalishidagi hodisani, sodir etilgan huquqbuzarlikni belgilangan tartibda rasmiylashtirish, jinoyat izlarini saqlash maqsadida fuqarolardan hodisa joyini tark etishni talab qilish;

qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda xizmat qurolini hamda maxsus vositalarni olib yurish va ulardan foydalanish, shuningdek jismoniy kuch ishlatish.

Qo'riqlash bo'linmalarining xizmatni noqulay mehnat sharoitlariga ega bo'lgan obyektlarda o'taydigan harbiy xizmatchilari, xodimlari, ishchilari va xizmatchilari ushbu obyektlarning xodimlari uchun nazarda tutilgan mehnat sohasidagi qo'shimcha kafolatlardan foydalanadi. Mehnat sohasidagi qo'shimcha kafolatlar qo'riqlash xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi shartnomada aks ettiriladi.

19-modda. Qo'riqlash faoliyatini amalga oshiruvchi subyektlar harbiy xizmatchilarining, xodimlarining, ishchilari va xizmatchilarining majburiyatlari

Qo'riqlash bo'linmalarining harbiy xizmatchilari, xodimlari, ishchilari va xizmatchilari qo'riqlash turi, shakllari, usullaridan qat'i nazar, xizmatni o'tash vaqtida:

qo'riqlanadigan obyektlarni himoya qilishi, belgilangan tartibga va qo'riqlash faoliyati to'g'risidagi qonunchilik talablariga qat'iy rioya etishi, qo'riqlanadigan obyektning kuzatib borishni amalga oshirishi;

o'z vakolatlari doirasida jismoniy shaxslarning hayoti, sog'lig'i va mol-mulkini, shuningdek yuridik shaxslarning mol-mulkini himoya qilish uchun zarur choralar ko'rishi;

xizmatni o'tash joylarida jamoat tartibini saqlashi, huquqbuzarliklarning oldini olishi va ularga chek qo'yishi;

qo'riqlanadigan obyektga huquqbuzarliklarning va hodisalarning izlari saqlanishini ta'minlashi;

hodisa joyida jabrlangan fuqarolarga, shuningdek hayotiga va sog'lig'iga zarar yetkazilgan shaxslarga birinchi yordam ko'rsatishi yoki shunday yordam ko'rsatilishini tashkil etishi;

qo'riqlanadigan obyektlar xavfsizligini ta'minlash maqsadida fuqarolar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa davlat organlari, jamoatchilik vakillari bilan hamkorlikni amalga oshirishi;

huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ularning zimmasiga yuklatilgan vazifalarni hal etishda o'z vakolatlari doirasida ko'maklashishi;

qo'riqlanadigan obyektlardagi tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf qilishda ishtirok etishi;

qo'riqlanadigan obyektida nazorat-o'tkazish va obyektning ichki rejimlariga rioya etilishini qo'riqlanadigan obyekt ma'muriyati tomonidan qo'riqlash faoliyatini amalga oshiruvchi subyektlar bilan kelishuvga ko'ra tasdiqlangan qoidalarga muvofiq ta'minlashi;

o'ziga ishonib topshirilgan xizmat qurolining va uning o'q-dorilarining, maxsus va texnik vositalarning, shaxsiy himoya vositalarining hamda mol-mulkning xavfsiz va lozim darajada saqlanishini ta'minlashi;

belgilangan tartibda maxsus formal kiyim-boshini kiyishi va farqlovchi belgilarini taqib yurishi;

qo'riqlash faoliyatini amalga oshirish chog'ida o'zlariga ma'lum bo'lib qolgan xizmatga doir axborotning va boshqa axborotning maxfiyligini ta'minlashi shart.

Qo'riqlash faoliyatini amalga oshiruvchi subyektlar harbiy xizmatchilarining, xodimlarining, ishchilari va xizmatchilarining zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.



LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktabrdagi 598-son qarori bilan tasdiqlangan "Davlat organlari va tashkilotlari idoraviy qorovullik bo'linmalarining huquqbuzarlik va hodisalar yuzasidan ichki ishlar organlari va O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo'linmalarini xabardor qilish hamda o'zaro hamkorlik qilish tartibi haqida"gi nizomning 6 va 7-bandi.

5-bob. Qo'riqlash faoliyatini amalga oshiruvchi subyektlarning harbiy xizmatchilariga, xodimlariga, ishchilari va xizmatchilariga qo'yiladigan talablar

20-modda. Qo'riqlash faoliyatini amalga oshiruvchi subyektlarning harbiy xizmatchilari, xodimlari, ishchilari va xizmatchilari lavozimlariga nomzodlarga qo'yiladigan talablar

Quyidagi shaxslar qo'riqlash faoliyatini amalga oshiruvchi bo'linmalarga ishga (xizmatga) qabul qilinmaydi:

qasddan sodir etgan jinoyatlari uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar;

jinoiy jazoni o'tayotgan shaxslar;

mulkka tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun ma'muriy javobgarlikka tortilgan, shuningdek jamoat tartibiga yoki boshqaruvning belgilangan tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun bir yil ichida takroran ma'muriy javobgarlikka tortilgan shaxslar;

ruhiy kasalliklari bo'lgan, narkologik kasalliklarga chalingan, shuningdek sog'lig'ining holatiga nisbatan belgilangan talablarga javob bermaydigan shaxslar;

sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar;

umumiy o'rta yoki o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lmagan shaxslar;

chet el fuqarolari bo'lgan shaxslar.

Qo'riqlash faoliyatini amalga oshiruvchi bo'linmalarga ishga (xizmatga) kirish uchun nomzodlarga nisbatan qonunchilikka muvofiq qo'shimcha talablar qo'yilishi mumkin.

21-modda. Qo‘riqlash faoliyatini amalga oshiruvchi subyektlarning harbiy xizmatchilarini, xodimlarini, ishchilari va xizmatchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish

Qo‘riqlash faoliyatini amalga oshiruvchi subyektlarning harbiy xizmatchilari, xodimlari, ishchilari va xizmatchilari quyidagi tartibda tayyorlash, qayta tayyorlash hamda malaka oshirish o‘quv kurslarida o‘quvdan o‘tadi:

davlat organlari qo‘riqlash bo‘linmalarining harbiy xizmatchilari, xodimlari, ishchilari va xizmatchilari — tegishli organlar tomonidan tasdiqlanadigan o‘quv dasturlari asosida;

xizmat qurolidan foydalanish huquqiga ega bo‘lgan idoraviy harbiylashtirilgan qo‘riqlash hamda idoraviy qorovullik bo‘linmalarining ishchilari va xizmatchilari — shartnoma asosida O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining ta‘lim muassasalarida hamda ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan boshqa ta‘lim tashkilotlarida;

xizmat qurolidan foydalanish huquqiga ega bo‘lmagan idoraviy harbiylashtirilgan qo‘riqlash hamda idoraviy qorovullik bo‘linmalarining ishchilari va xizmatchilari — mustaqil ravishda o‘z bo‘linmalarida, shuningdek ixtiyoriy tartibda — shartnoma asosida O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi ta‘lim muassasalarining o‘quv kurslarida.



LexUZ sharhi

Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining o‘quv markazlari faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5016-son qarori.

22-modda. Qo‘riqlash faoliyatini amalga oshiruvchi subyektlar harbiy xizmatchilarining, xodimlarining, ishchilari va xizmatchilarining kasbiy, jismoniy va jangovar tayyorgarligi

Davlat organlarining qo‘riqlash bo‘linmalari harbiy xizmatchilarining, xodimlarining, ishchilari va xizmatchilarining kasbiy, jismoniy hamda jangovar tayyorgarligini tashkil etish tartibi ular qaysi organning tasarrufida bo‘lsa, o‘sha organ tomonidan belgilanadi.

Idoraviy harbiylashtirilgan qo‘riqlash hamda idoraviy qorovullik bo‘linmalarining ishchilari va xizmatchilari maxsus o‘quv dasturlari bo‘yicha maxsus tayyorgarlikdan (xizmat tayyorgarligidan, jismoniy, jangovar tayyorgarlikdan) o‘tadi. Maxsus tayyorgarlik (xizmat tayyorgarligi, jismoniy, jangovar tayyorgarlik) bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkaziladigan vaqt ish vaqtiga kiritiladi.

Qo‘riqlash faoliyatini amalga oshiruvchi subyektlarning harbiy xizmatchilari, xodimlari, ishchilari va xizmatchilari bir yilda bir marta majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tadi, bundan qonunchilikda davlat organlarining qo‘riqlash bo‘linmalari xodimlari uchun majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tishning boshqacha muddati belgilangan hollar mustasno.

Qo‘riqlash faoliyatini amalga oshiruvchi subyektlarning maxsus tayyorgarlik (xizmat tayyorgarligi, jismoniy, jangovar tayyorgarlik) bo‘yicha o‘quv dasturlari fanlarini o‘zlashtirmagan harbiy xizmatchilariga, xodimlariga, ishchilari va xizmatchilariga qo‘riqlash faoliyatini amalga oshirish taqiqlanadi.

6-bob. Qo‘riqlash faoliyatini amalga oshiruvchi subyektlarning harbiy xizmatchilari, xodimlari, ishchilari va xizmatchilari tomonidan jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni va xizmat qurolini qo‘llash

23-modda. Jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni va xizmat qurolini qo‘llash shartlari

Davlat organlari qo‘riqlash bo‘linmalarining harbiy xizmatchilari va xodimlari tomonidan jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni hamda xizmat qurolini qo‘llash qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Idoraviy harbiylashtirilgan qo‘riqlash hamda idoraviy qorovullik bo‘linmalarining ishchilari va xizmatchilari xizmat majburiyatlarini bajarish chog‘ida faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda

va tartibda xizmat qurolini hamda maxsus vositalarni olib yurish, jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni va xizmat qurolini qo'llash huquqiga ega.

Idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash hamda idoraviy qorovullik bo'linmalarining ishchilari va xizmatchilari maxsus tayyorgarlikdan, shuningdek jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni hamda xizmat qurolini qo'llash bilan bog'liq sharoitlardagi harakatlarga kasbiy yaroqliligini aniqlash uchun davriy tekshiruvlardan o'tishi kerak. Maxsus tayyorgarlikdan o'tgan ishchilar va xizmatchilarga belgilangan namunadagi sertifikatlar beriladi.

Idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash hamda idoraviy qorovullik bo'linmalarining jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni va xizmat qurolini qo'llash bilan bog'liq sharoitlardagi harakatlarga kasbiy yaroqliligini aniqlash uchun tekshiruvdan o'tmagan ishchilari va xizmatchilari jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni hamda xizmat qurolini qo'llash bilan bog'liq bo'lmagan boshqa lavozimga mehnat shartnomasiga muvofiq o'tkaziladi yoki ular bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinadi.

Jismoniy kuch ishlatishdan, maxsus vositalarni hamda xizmat qurolini qo'llashdan avval ularni qo'llash niyati to'g'risida aniq ifodalangan ogohlantirish bo'lishi kerak, bundan bunday ogohlantirishning imkoni bo'lmagan yoxud ularning qo'llanilishini kechiktirish fuqarolarning, idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash hamda idoraviy qorovullik bo'linmalari ishchisining va xizmatchisining hayoti hamda sog'lig'i uchun bevosita xavf tug'diradigan va boshqa og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan hollar mustasno.

Jismoniy kuch ishlatilishi, maxsus vositalarning yoki xizmat qurolining qo'llanilishi yuzaga kelgan vaziyatga, shaxslar xatti-harakatlarining xususiyatiga va xavflilik darajasiga muvofiq bo'lishi kerak. Bunda idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash hamda idoraviy qorovullik bo'linmalarining ishchilari va xizmatchilari har qanday zararining imkon qadar kam bo'lishiga intilishi shart.

Idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash hamda idoraviy qorovullik bo'linmalarining ishchilari va xizmatchilari, agar yuzaga kelgan vaziyatda maxsus vositalarni yoki xizmat qurolini qo'llash uchun mazkur moddada, ushbu Qonunning 25 va 26-moddalarida nazarda tutilgan asoslar yuzaga kelishi mumkin deb hisoblasa, maxsus vositalarni yoki xizmat qurolini qo'llash uchun tayyorlash hamda ularni jangovar holatga keltirish huquqiga ega.

Jismoniy kuch ishlatilganligi, maxsus vositalar yoki xizmat quroli qo'llanilganligi natijasida tan jarohati olgan fuqarolarga birinchi yordam ko'rsatilishi hamda eng qisqa muddatlarda tibbiy yordam ko'rsatish choralari ko'rilishi kerak.

Idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash hamda idoraviy qorovullik bo'linmalarining ishchilari va xizmatchilari jismoniy kuch ishlatilgan, maxsus vositalar hamda xizmat quroli qo'llanilgan har bir holat to'g'risida bevosita boshlig'iga darhol xabar berishi shart.

Qo'riqlash faoliyatini amalga oshiruvchi subyekt jismoniy kuch ishlatilganligi va maxsus vositalar qo'llanilganligi natijasida jismoniy yoki yuridik shaxslarning hayotiga, sog'lig'iga yoki mol-mulkiga zarar yetkazilgan har bir holat haqida, shuningdek xizmat quroli qo'llanilgan barcha hollar to'g'risida prokurorga va ichki ishlar organlariga darhol xabar beradi.

Idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash hamda idoraviy qorovullik bo'linmalari ishchilari va xizmatchilarining jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni yoki xizmat qurolini qo'llash chog'ida o'z vakolatlari doirasidan chiqqanligi qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

Agar jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni yoki xizmat qurolini qo'llash qonunchilikda belgilangan asoslar bo'yicha va tartibda amalga oshirilgan bo'lsa, idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash hamda idoraviy qorovullik bo'linmalarining ishchilari va xizmatchilari bunday jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni yoki xizmat qurolini qo'llash chog'ida jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'lmaydi.

Agar idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash hamda idoraviy qorovullik bo'linmalarining ishchilari va xizmatchilari tomonidan jismoniy kuch ishlatilganligi, maxsus vositalar yoki xizmat quroli qo'llanilganligi natijasida fuqaroga tan jarohati yetkazilsa yoxud u vafot etsa, idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash hamda idoraviy qorovullik bo'linmalarining ishchilari va xizmatchilari hodisa joyini o'zgarishsiz saqlashga qaratilgan choralarni ko'rishi shart.

24-modda. Jismoniy kuch ishlatish

Agar kuch ishlatilmaydigan usullar idoraviy harbiylashtirilgan qo‘riqlash hamda idoraviy qorovullik bo‘linmalarining ishchilari va xizmatchilari zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning bajarilishini ta‘minlamasa, ular quyidagi hollarda shaxsan o‘zi yoki bo‘linma (guruh) tarkibida jismoniy kuch ishlatish, shu jumladan kurashning jang usullarini qo‘llash huquqiga ega bo‘ladi:

qo‘riqlanadigan obyektga tajovuzlarning oldini olishda va uning hududidagi g‘ayriqonuniy xatti-harakatlarni to‘xtatishda;

qo‘riqlanadigan hududda huquqbuzarlik sodir etgan shaxsni ushlab turishda va uni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga topshirishda;

qo‘riqlash bo‘linmasining harbiy xizmatchisi, xodimi, ishchisi va xizmatchisining qonuniy talablariga qarshilik ko‘rsatilishini bartaraf etishda.

Qo‘riqlash bo‘linmalarining ishchilari va xizmatchilari ushbu Qonunda maxsus vositalar yoki xizmat quroli qo‘llanilishiga ruxsat etilgan hollarda ham jismoniy kuch ishlatish huquqiga ega.

Homiladorlik belgilari sezilib turgan ayollarga, nogironlik belgilari ko‘rinib turgan shaxslarga, yoshi aniq ko‘rinib turgan yoki ma‘lum bo‘lgan voyaga yetmaganlarga nisbatan jismoniy kuch ishlatish taqiqlanadi, bundan ularning qurolli qarshilik ko‘rsatganligi, fuqarolarning yoxud qo‘riqlash faoliyatini amalga oshiruvchi subyekt harbiy xizmatchisining, xodimining, ishchisi va xizmatchisining hayotiga hamda sog‘lig‘iga haqiqatda tahdid etib, hujum qilinganligi hollari mustasno.

25-modda. Maxsus vositalarni qo‘llash

Idoraviy harbiylashtirilgan qo‘riqlash hamda idoraviy qorovullik bo‘linmalarining ishchilari va xizmatchilari quyidagi hollarda maxsus vositalarni qo‘llash huquqiga ega:

qo‘riqlanadigan obyektga qilingan hujumni qaytarishda;

idoraviy harbiylashtirilgan qo‘riqlash hamda idoraviy qorovullik bo‘linmalarining ishchisiga va xizmatchisiga yoki qo‘riqlanadigan obyekt hududidagi fuqaroga qilingan hujumni qaytarishda;

idoraviy harbiylashtirilgan qo‘riqlash hamda idoraviy qorovullik bo‘linmalarining ishchisiga va xizmatchisiga ko‘rsatilayotgan qarshilikka barham berishda;

qo‘riqlanadigan obyektga huquqbuzarlik sodir etish chog‘ida ko‘rib qolgan shaxsni ushlab turishda, agar ushbu shaxs qurolli qarshilik ko‘rsatishi mumkin bo‘lsa;

ushlab turilgan shaxslarni olib borish va qo‘riqlashda, shuningdek qochishga urinishini, atrofda qilargalarga yoki o‘ziga zarar yetkazishini bartaraf etish maqsadida;

qo‘riqlanadigan obyektga haydovchisi qo‘riqlash faoliyatini amalga oshiruvchi subyektning harbiy xizmatchisi, xodimi, ishchisi va xizmatchisi talablarini bajarmagan transport vositasini to‘xtatish zarur bo‘lganda.

Idoraviy harbiylashtirilgan qo‘riqlash hamda idoraviy qorovullik bo‘linmalarining ishchilari va xizmatchilari quyidagi maxsus vositalarni qo‘llash huquqiga ega:

rezina tayoqlarni — ushbu modda birinchi qismining **ikkinchi**, **uchinchi** va **to‘rtinchi xatboshilarida** nazarda tutilgan hollarda;

qo‘lkishanlarni yoki boshqa bog‘lash vositalarini — ushbu modda birinchi qismining **uchinchi** — **oltinchi xatboshilarida** nazarda tutilgan hollarda;

xizmat (qo‘riqchi) itlarini — ushbu modda birinchi qismining **ikkinchi** — **oltinchi xatboshilarida** nazarda tutilgan hollarda;

transport vositalarini majburiy to‘xtatish vositalarini — ushbu modda birinchi qismining **ikkinchi** va **yettinchi xatboshilarida** nazarda tutilgan hollarda.

Idoraviy harbiylashtirilgan qo‘riqlash hamda idoraviy qorovullik bo‘linmalarining ishchilari va xizmatchilari ushbu Qonunda xizmat qurolini ishlatishga ruxsat etilgan barcha hollarda maxsus vositalarni qo‘llash huquqiga ega.

Maxsus vositalar, agar idoraviy harbiylashtirilgan qo‘riqlash hamda idoraviy qorovullik bo‘linmalarining ishchilari va xizmatchilari tomonidan huquqbuzarga nisbatan ogohlantiruvchi harakatlarning boshqa barcha shakllaridan foydalanilsa va ular kutilgan natijalarni bermasa, qo‘llaniladi.

Maxsus vositalarning qo'llanilishi uchinchi shaxslarning hayotiga, sog'lig'iga xavf tug'dirmasligi va mol-mulkiga zarar yetkazmasligi kerak.

Homiladorlik belgilari sezilib turgan ayollarga, nogironlik belgilari ko'rinib turgan shaxslarga hamda yoshi aniq ko'rinib turgan yoki ma'lum bo'lgan voyaga yetmaganlarga nisbatan maxsus vositalarni qo'llash taqiqlanadi, bundan ularning qurolli qarshilik ko'rsatganligi yoki fuqarolarning yoxud idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash hamda idoraviy qorovullik bo'linmalari ishchilarining va xizmatchilarining hayotiga hamda sog'lig'iga haqiqatda tahdid etib, guruh bo'lib hujum qilganligi hollari mustasno.

Odamning boshiga, bo'yniga, o'mrov suyagiga, qorniga, jinsiy a'zolariga, yurak sohasiga rezina tayoq bilan zarbalar berish taqiqlanadi, bundan odam qurolli qarshilik ko'rsatganligi yoki fuqarolarning yoxud idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash hamda idoraviy qorovullik bo'linmalari ishchilarining va xizmatchilarining hayotiga hamda sog'lig'iga haqiqatda tahdid etib, guruh bo'lib hujum qilganligi hollari mustasno.

26-modda. Xizmat qurolini qo'llash

Idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash hamda idoraviy qorovullik bo'linmalarining ishchilari va xizmatchilari quyidagi hollarda xizmat qurolini qo'llash huquqiga ega bo'ladi:

qo'riqlanadigan shaxsni va qo'riqlanadigan obyektga bo'lgan boshqa fuqarolarni hujumdan himoya qilishda, agar hujum hayot yoki sog'liq uchun xavfli bo'lgan zo'rlik ishlatish bilan qilingan bo'lsa;

qo'riqlanadigan obyektlarga qurolli hujumni yoki guruh bo'lib qilingan hujumni qaytarishda;

idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash hamda idoraviy qorovullik bo'linmalari ishchilarining va xizmatchilarining hayotiga va sog'lig'iga tahdid soladigan hujumni qaytarishda, shuningdek xizmat qurolini egallab olishga bo'lgan urinishlarning oldini olishda;

o'ta og'ir jinoyatni sodir etish chog'ida ko'rib qolingan va qo'riqlanadigan obyekt hududidan yashirinishga urinayotgan shaxsni ushlashda, agar boshqa vositalar bilan bu shaxsni ushlash imkoni bo'lmasa;

qurolli qarshilik ko'rsatayotgan shaxsni, shuningdek o'zidagi qurolni, o'q-dorilarni, portlovchi moddalarni, portlatish qurilmalarini, zaharli yoki radioaktiv moddalarni topshirish to'g'risidagi qonuniy talabni bajarishni rad etayotgan shaxsni ushlashda;

agar haydovchi qo'riqlanadigan obyekt ishchilari va xizmatchilarining, qo'riqlanadigan shaxsning hayotiga hamda sog'lig'iga haqiqiy xavf tug'dirsa va idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash hamda idoraviy qorovullik bo'linmalari ishchisi va xizmatchisining qonuniy talablariga qaramasdan to'xtashni rad etsa, ushbu transport vositasini unga shikast yetkazish yo'li bilan to'xtatishda;

insonning hayotiga va sog'lig'iga tahdid solayotgan hayvonni zararsizlantirishda;

xizmat qurolini qo'llash niyati to'g'risida ogohlantirish sifatida o'q otishda, yuqoriga qarata yoki boshqa xavfsiz yo'nalishda o'q otish orqali xavf-xatar signalini berishda yoki yordamga chaqirishda.

Idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash hamda idoraviy qorovullik bo'linmalarining ishchisi va xizmatchisi xizmat qurolini qo'llashdan oldin ogohlantirishi shart, bundan ularning o'z hayotiga yoki fuqarolarning hayotiga bevosita xavf tahdid solayotgan hollar mustasno.

Ayollarga, nogironlik belgilari ko'rinib turgan shaxslarga, yoshi aniq ko'rinib turgan yoki ma'lum bo'lgan voyaga yetmaganlarga nisbatan xizmat qurolini qo'llash taqiqlanadi, bundan ularning qurolli hujum qilganligi, qurolli qarshilik ko'rsatganligi yoki fuqarolarning yoxud idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash hamda idoraviy qorovullik bo'linmalari ishchisi va xizmatchisining hayotiga va sog'lig'iga tahdid etib, guruh bo'lib hujum qilganligi hollari mustasno.

Agar xizmat quroli qo'llanilishi natijasida tasodifiy shaxslar jabrlanishi mumkin bo'lsa, idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash hamda idoraviy qorovullik bo'linmalarining ishchilari va xizmatchilari ko'p fuqarolar to'planganda uni qo'llash huquqiga ega emas, bundan terrorchilik harakatining oldini olish, garovdagilarni ozod qilish, qurolli hujumni qaytarish hollari mustasno.

27-modda. Qo‘riqlash faoliyatini amalga oshiruvchi subyektlar tomonidan xizmat (qo‘riqchi) itlaridan foydalanilishi

Qo‘riqlash faoliyatini amalga oshiruvchi subyektlar o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun xizmat (qo‘riqchi) itlaridan foydalanishi mumkin. Xizmat (qo‘riqchi) itlari xizmatda foydalanishga yaroqli deb topilgan bo‘lishi va ularning veterinar pasporti bo‘lishi kerak.

Qo‘riqlash faoliyatini amalga oshiruvchi subyektlarning harbiy xizmatchilari, xodimlari, ishchilari va xizmatchilari qo‘riqlanadigan hududni xizmat (qo‘riqchi) iti bilan aylanib chiqishi vaqtida xizmat (qo‘riqchi) iti tasmada va tumshuqbog‘da bo‘lishi kerak. Jamoat joylarida va odamlar gavjum bo‘lgan joylarda maxsus tayyorgarlikdan o‘tkazilmagan xizmat (qo‘riqchi) itlaridan foydalanish taqiqlanadi.

Odamlar bo‘lmagan vaqtda yopiq hududda xizmat (qo‘riqchi) itlaridan qo‘riqlash bo‘linmasi xodimining nazorati ostida tasmasiz foydalanishga ruxsat beriladi.

7-bob. Yakunlovchi qoidalar

28-modda. Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.



LexUZ sharhi

Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 194^l, 195^l, 210^l va 248^l-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 172-moddasi.

29-modda. Ushbu Qonunning ijrosini, yetkazilishini, mohiyati va ahamiyati tushuntirilishini ta‘minlash

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi va boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o‘rtasida tushuntirilishini ta‘minlasin.

30-modda. Qonunchilikni ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:
hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;
davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo‘lgan o‘z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta‘minlasin.

31-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Ushbu Qonun rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran uch oy o‘tgach kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2022-yil 15-iyun,
O‘RQ-778-son

(Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 16.06.2022-y., 03/22/778/0525-son)